



Boshlang'ich matematik ta'limning o'quv-uslubiy ta'minoti

Malohat Olimboyeva — Urganch Davlat Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich matematik ta'limda o'quv-uslubiy ta'minotning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari, ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri, zamonaviy yondashuvlar nuqtayi nazaridan yoritiladi. Pedagogik nazariya va amaliyot asosida o'quv-uslubiy ta'minotning asosiy tamoyillari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika, o'quv-uslubiy ta'minot, darslik, metodika, pedagogik texnologiya.

O'zbekistonda ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, ayniqsa boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Boshlang'ich ta'limda matematika fanining tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Bu fanning muvaffaqiyatli o'qitilishi o'quv-uslubiy ta'minotga bevosita bog'liq. Zero, har qanday dars mazmuni va metodikasi puxta ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy vositalar bilan ta'minlangandagina samarali natijaga erishish mumkin.

O'quv-uslubiy ta'minot — bu o'quv jarayonini metodik va mazmuniy jihatdan ta'minlashga xizmat qiladigan vositalar, metodik ko'rsatmalar, me'yoriy hujjatlar, darslik va qo'llanmalar tizimidir. Bu ta'minot o'qituvchining kasbiy faoliyatini yo'naltirib boruvchi, o'quv dasturlarini hayotga tadbiiq etishda metodik asos bo'lib xizmat qiluvchi vositalar majmuasini ifodalaydi.

O'quv-uslubiy ta'minot tarkibiga kiradi:

1. Darsliklar – o'quv fanining mazmunini yorituvchi asosiy manba.
2. O'qituvchi uchun metodik qo'llanmalar – dars jarayonini tashkil qilish va o'quvchilarning faolligini oshirishda ko'maklashuvchi materiallar.
3. Ishchi dasturlar – ta'lim mazmunini yil davomida qanday taqsimlash kerakligini belgilovchi hujjat.
4. Didaktik materiallar – qo'shimcha topshiriqlar, testlar, sxemalar, jadval va grafiklar.
5. Multimedia vositalari – audio, video, interaktiv materiallar, elektron darsliklar.

O'quv-uslubiy ta'minotning mohiyati:

1. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash – tizimli va izchil materiallar yordamida o'quvchilarda mustahkam bilim shakllantiriladi.

2. O'qituvchi mehnatini yengillashtirish – metodik ko'rsatmalar darsni to'g'ri tashkil etish, zamonaviy usullarni qo'llashda yo'l-yo'riq beradi.

3. Didaktik tamoyillarga tayanuvchi ta'lim – moslik, izchillik, ravonlik, tushunarlik kabi tamoyillar asosida tayyorlangan materiallar ta'lim jarayonini samarali qiladi.

4. Standartlarga moslik – barcha o'quv-uslubiy materiallar davlat ta'lim standartlariga va fan dasturlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. Innovatsion yondashuvga asoslanganlik – zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quv-uslubiy ta'minot nafaqat o'quv jarayonini tartibga soluvchi, balki uni sifatli, qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim omildir. U orqali o'quvchilarning intellektual rivoji, ijodiy fikrlash qobiliyati, o'qituvchining esa metodik savodxonligi shakllanadi.

Mazkur tushuncha ikki asosiy tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

1. O'quv ta'minoti — davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar, ishchi daftarlardan iborat bo'lib, o'quv mazmunining asosiy yo'nalishini belgilaydi.

2. Uslubiy ta'minot — metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar to'plamidan tashkil topgan bo'lib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan.

O'quv-uslubiy ta'minotning ahamiyati shundaki, u:

- ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi;
- o'quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlariga mos metodlarni tanlashga yordam beradi;
- o'qituvchining ijodiy yondashuvini rag'batlantiradi;
- darsda innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkonini yaratadi;
- pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil qilishga sharoit yaratadi.

Bugungi kunda o'quv-uslubiy ta'minot faqat an'anaviy darslik va qo'llanmalargina emas, balki raqamli texnologiyalar, elektron platformalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv dasturlar bilan boyitilgan holda taklif etilmoqda. Bu esa zamonaviy o'qituvchining bilim va malakasini oshirish, o'quvchilarning esa ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'qitish jarayonida ko'rgazmali vositalar, o'yinli mashg'ulotlar, amaliy topshiriqlarning keng qo'llanilishi muhim. Bunda o'quv-uslubiy ta'minot asosiy rolni o'ynaydi. Metodik qo'llanmalarda har bir mavzuning mazmuni, o'qitish bosqichlari, kerakli didaktik materiallar va baholash mezonlari aniq ko'rsatilgan



bo'ladi. Bu esa o'qituvchining darsga tayyorlanishida va uni sifatli tashkil qilishida asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, darslik va ishchi daftarlarda o'quvchining mantiqiy fikrlashini, matematik tasavvurlarini, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi turli xil mashq va topshiriqlar keltirilgan. Darsliklar va metodik qo'llanmalar uzviy bog'langan holda tuzilgani uchun o'qituvchiga metodik erkinlik bilan ijodiy yondashuv imkonini beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'limga jadal kirib kelmoqda. Elektron darsliklar, videodarslar, onlayn testlar o'quv-uslubiy ta'minot tarkibidan o'rin olmoqda. Bu esa, nafaqat o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, balki mavzularni chuqurroq tushunishiga xizmat qiladi.

O'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalarda darsning maqsadga yo'naltirilganligi, muammoli vaziyatlar yaratish, o'yin texnologiyalaridan foydalanish, kichik guruhlar bilan ishlash kabi metodlar keng tavsiya etilmoqda. Bu yondashuvlar boshlang'ich matematik ta'limda o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

O'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- fan dasturlarini zamonaviy talablarga muvofiq yangilash;
- elektron resurslar va ilovalarni kengaytirish;
- amaliyotchi o'qituvchilar ishtirokida metodik qo'llanmalarni yaratish;
- ta'limda differensial yondashuvni metodik jihatdan ta'minlash;
- ko'rgazmali, interaktiv va ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan materiallar bilan boyitish.

Boshlang'ich matematika ta'limining o'quv-uslubiy ta'minoti o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon etishiga, o'quvchining esa mustaqil fikrlovchi, mantiqiy tafakkurga ega shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Har bir darsda samaradorlikka erishish uchun puxta o'ylangan, nazariy va amaliy jihatdan asoslangan o'quv-uslubiy ta'minot zarurdir. Shu boisdan, ushbu sohadagi ishlanmalarni doimiy takomillashtirib borish ta'lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
fanlari
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha davlat ta’lim standarti, 2022.
3. Yusupova D. Boshlang‘ich ta’limda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
4. Xolboyev A. Pedagogik texnologiyalar va metodika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. "Ta’lim va tarbiya" ilmiy-uslubiy jurnali, 2023, 2-son.